“O‘zkimyosanoat” AJ neft-gaz sanoati uchun kimyoviy reagentlarni mahalliylashtirish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqda

// 19.08.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/birja20250819



Mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, strategik ahamiyatga ega mahsulotlar ishlab chiqarilishini mahalliylashtirish va importga bog‘liqlikni kamaytirish – iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omillardan biri sanaladi.

Aynan shu maqsadda, “O‘zkimyosanoat” AJ, “O‘zbekneftgaz” AJ hamda O‘zbekiston kimyo va farmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislari bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda neft-gaz sanoati ehtiyojlari uchun talab etiladigan kimyoviy mahsulot va reagentlarning importini qisqartirish, ularni mahalliy ishlab chiqarish asosida o‘zlashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.



Tomonlar innovatsiya, diversifikatsiya va investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali mahalliy korxonalar va texnoparklar negizida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini ko‘rib chiqdilar.

Ma’lumotlarga ko‘ra, neft-gaz sanoatida an’anaviy ravishda import qilinadigan 8 turdagi kimyoviy reagentlarni nazariy jihatdan mahalliy bozorda o‘zlashtirish imkoniyati mavjud.



Yig‘ilishda quyidagi muhim mahsulotlarni “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari negizida mahalliylashtirish yuzasidan takliflar muhokama etildi:

- Koagulyant alyuminiy sulfati,
- Korroziya ingibitori – nitrilotrimetilenfosfon kislotasi (“Navoiyazot” AJ);
- Sintetik seolit CaA, molekulyar seolitlar (3A va 4A turlari), adsorbentlar;
- Korroziya va cho‘kinmalarga qarshi kimyoviy vositalar (“Chirchiq” kimyo-industrial texnoparki).

Uchrashuv yakunida ishchi guruh tuzish, korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini yaqindan o‘rganish, mahsulotlarni laboratoriya va sanoat sinovlaridan o‘tkazish, sertifikatlash va amaliyotga joriy etish bosqichlarini qamrab olgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar mamlakatda strategik ahamiyatga ega kimyoviy mahsulotlarning importini qisqartirish, tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish hamda mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati